

Aholi Salomatligi Va Millat Genofondini Giyohvandlik Va Narkojinoyatlardan Samarali Himoya Qilish Bo‘Yicha Kompleks Chora-Tadbirlar Ahamiyati

Ahmedov Islom Baxtiyor o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasida dotsenti,
dotsent*

Annotatsiya: Maqolada aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarning mazmuni, zaruriyati hamda ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: aholining salomatligi, millat genofondi, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi.

Kirish

Xech kimga sir emaski, “asr vabosi” nomini olgan giyohvandlik insoniyatning tinch, osuda hayotiga rahna solib, ongi, vujudini o‘ziga bo‘ysundiruvchi zahri qotildir. Bu shunday illatki, o‘z domiga ilintirgan insonni razolat dunyosiga etaklaydi va bu jarayonda odam oiladagi, jamiyatdagi o‘rnini yo‘qota boshlaganini anglamay qoladi. Giyohvandlik – XXI asrning global muammolaridan biriga aylangan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o‘rinli ta’kidlaganlaridek, “Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Shu bois, milliy qonunchiligimizga mana shunday xavf-xatarlarning oldini olish, ularga qarshi ayovsiz kurashish, bunday illatni tag-tomiri bilan yo‘qotishga qaratilgan normalarni kiritish vaqti keldi” [1].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo‘liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etmoqda. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko‘z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to‘g‘ri keladi [2].

Davlatimizning bu boradagi qat’iy siyosati yoshlarimizni, xalqimizni, jamiyatimizni har tomonlama komil, sog‘lom, oliyjanob fazilatlarini, yuksak tafakkuri va ma’naviyati, ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadigan namunali jamiyat bo‘lishiga qaratilgan mazkur xalqchil siyosatga asoslangan giyohvandlikning har qanday ko‘rinishlarini barvaqt oldini olish va ularga qarshi izchil kurash olib borishdir.

Bu borada milliy qonunchiligimizda zaruriy huquqiy asoslar qabul qilingan hamda izchilik bilan zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirilib kelinmoqda. Jumladan, mamlakatimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan muomala qilish tartibi – O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi 813-I-sonli qonuni bilan belgilanadi [3].

Mazkur qonunning maqsadi – giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish hamda ularning qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga monelik qilish, fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash hamda davlat xavfsizligini ta’minlashdan iborat.[4]

Metodologiya

Ushbu qonunga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonuniy muomalada bo‘lishi (*olib kirish, olib chiqish, tranzit tarzida o‘tkazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo‘natish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo‘q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan o‘simliklarni etishtirish*) tartibga solingan. [5]

Biroq, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilish jamiyatimiz xavfsizligiga, insonlarning sog‘lig‘iga jiddiy xavf tug‘dirishi hammaga ma’lum.

Giyohvandlik vositalari psixotrop moddalar va prekursorlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzgan (ya’ni, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilgan) aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.[6]

Mazkur qilmishlarda jinoyat alomatlari bo‘lganda – amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi Maxsus qismi VI-bo‘limining XIX-bobida belgilangan moddalar asosida jinoiy javobgarlikka tortiladilar [7].

Ayrim qilmishlarda ma’muriy huquqbuzarlik alomatlari bo‘lganda – amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida Maxsus qismi tegishli bob va moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘ladi [8].

Shuni ta’kidlashimiz kerakki, giyohvandlikni oldini olish va unga qarshi kurashishda faqat javobgarlikni belgilash hamda javobgarlikka tortish bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyaning ustuvor maqsadlariga erishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash maqsadida 2025-yil 3-noyabrda “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-son Farmon qabul qilindi [9].

Natijalar va Muhokama

Mazkur Farmon quyidagi besh muhim bo‘limlardan hamda 17 ta bandlardan iborat:

- 1) I. Maqsadlar va ustuvor vazifalar;
- 2) II. Normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish;
- 3) III. Kompleks chora-tadbirlarni belgilash va ularning ijrosini ta’minlash;
- 4) IV. Narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish va aniqlash mexanizmlari;
- 5) V. Farmon ijrosini tashkil etish, ta’minlash va nazorat.

Shuningdek mazkur PF-207-sonli Farmon bilan quyidagi muhim uchta ilovalar tasdiqlangan:

- 1) Giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo‘yicha 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan kompleks Amaliy harakatlar Milliy dasturi;[10]
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida faoliyat ko‘rsatuvchi Respublika idoralararo muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar.

Shuningdek mazkur 3-ilovaning (i) bandi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil

Journal of Innovation in Education and Social Research, Volume: 4 Issue: 4 Year: 2026, ISSN: 2992-894X
6-maydagi «O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-73-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2-ilova” quyidagi tahrirda bayon etildi:

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi PF-73-son Farmoniga 2-Ilova Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi Tarkibi” tasdiqlangan.[11]

Mazkur Farmonning asosiy maqsadlari sifatida quyidagilar belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi:

1) O‘zbekiston aholisining salomatligi va millat genofondiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik illatiga qarshi kurashish hamda bunga sabab bo‘layotgan uyushgan narkojinoyatchilikka chek qo‘yishga qaratilgan normativ-huquqiy, tezkor-profilaktik va tashkiliy-tarbiyaviy choralar kompleksini belgilash;[12]

2) voyaga etmaganlar va yoshlarimiz kelajagini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan har tomonlama asrash – barcha darajadagi davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarining dolzarb vazifasi ekanini alohida qayd etish hamda ularning bu boradagi mas‘uliyatini tubdan oshirish.

Shuningdek, mazkur Farmon bilan giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi keskin kurashish faoliyatini amalga oshirishga mas‘ul davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

(a) ta‘lim muassasalarida, o‘quvchi va talabalar orasida psixofaol moddalarning tarqalishiga batamom chek qo‘yish, yoshlarda giyohvandlik illatiga murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha ta‘sirchan chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish;[13]

(b) giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar (keyingi o‘rinlarda — giyohvandlik vositalari) noqonuniy aylanmasiga qat‘iy jinoiy-huquqiy mexanizmlar orqali barham berish, bu boradagi jazo choralari keskin kuchaytirish hamda yoshlarga nisbatan sodir etiladigan narkojinoyatlar uchun javobgarlikni og‘irlashtirish;

(v) giyohvandlik vositalarini respublika chegarasidan olib kirish yo‘nalishlarini, internet tarmoqlari orqali tarqatish harakatlarini, noqonuniy narkolaboratoriyalarni va narkojinoiy uyushmalarni, shu jumladan, ularga homiylik (rahnamolik) qilayotgan mansabdor shaxslarni aniqlash, ular faoliyatiga chek qo‘yish hamda jazo muqarrarligini ta‘minlashga qaratilgan keng qamrovli tezkor-qidiruv va tergov faoliyatini yo‘lga qo‘yish;[14]

(g) giyohvandlik vositalarini tayyorlash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan kimyoviy moddalar (prekursorlar) aylanmasi ustidan qat‘iy davlat nazoratini o‘rnatish, giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanuvchi tibbiyot muassasalari, farmasevtika korxonlari va dorixonalarining faoliyatini nazorat qilish amaliyotiga raqamli echimlarni joriy etish;

(d) aholi, ayniqsa, voyaga etmaganlar va yoshlar orasida giyohvandlik hamda zaharvandlikni tashxislash, davolash va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni belgilash.

Bu borada normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bugungi kundagi amaliyot, zamon talablari va ilg‘or xorijiy tajribalarni kompleks o‘rgangan holda giyohvandlik vositalari aylanmasini tartibga solish mexanizmlari hamda narkojinoyatlarning oldini olish va fosh etishda davlat organlari va tashkilotlarining aniq mas‘uliyatini belgilaydigan «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda kiritish vazifasi yuklatildi.[15]

Bosh prokuratura, Oliy sud, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va Bojxona qo‘mitasining quyidagi takliflari ma‘qullandi:

uyushgan narkojinoyatchilikka jinoiy-huquqiy mexanizmlar orqali qarshi kurashish faoliyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Jinoyat kodeksiga «Aholi salomatligi va millat

narkojinoyatlarning yangi shakllari, usullari va uyushganlik darajasidan kelib chiqib, quyidagi qilmishlar uchun yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini belgilashni nazarda tutuvchi jinoiy javobgarlikni kiritish:

narkojinoiy uyushma tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta‘minlash, shuningdek, giyohvandlik vositalarini uyushgan guruh tomonidan transchegaraviy usullarda yoki internet tarmog‘idan foydalanib o‘tkazish;

giyohvandlik vositalarini noqonuniy muomalaga kiritishga hokimiyat (mansab) vakolatlarini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan homiylik (rahnamolik) qilish yoki bunday jinoyatlar fosh bo‘lishining oldini olish maqsadida xabar berish;

g‘ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta‘minlash;

giyohvandlik vositalarini jamoat joylarida iste‘mol qilganlik uchun o‘n besh sutkagacha ma‘muriy qamoq jazosini qo‘llashni nazarda tutuvchi ma‘muriy javobgarlikni kiritish;

narkojinoyatlar sodir etilishi va qayta sodir etilishining oldini olish maqsadida quyidagi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik choralari ikki baravargacha og‘irlashtirish:

giyohvandlik vositalarini o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ko‘p miqdorda tayyorlash, qayta ishlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, shuningdek, ularni noqonuniy ravishda ko‘p miqdorda har qanday usulda o‘tkazganlik;

kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni ta‘lim tashkilotlarida, ozodlikdan mahrum qilish joylarida, internet tarmog‘idan foydalanib, xavfli yoki o‘ta xavfli residivist tomonidan muomalaga kiritish, shuningdek, ularni ko‘p miqdorda kontrabanda qilganlik;

alohida toifadagi kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasini (o‘tkazish maqsadisiz) ko‘p miqdorda va takroran sodir etish;

giyohvandlik vositalarini har qanday shaklda iste‘mol qilishga jalb etish odam o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lganda;

voyaga etmagan va yoshlarni narkojinoyatlardan himoya qilish maqsadida:

har qanday narkojinoyatni voyaga etmagan shaxslarga nisbatan yoki ularni jalb qilgan holda sodir etishni jinoiy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holati sifatida qayd etish;

voyaga etmagan shaxsni kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni iste‘mol qilishga jalb qilganlik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlik belgilash;

ta‘lim tashkilotlari, talabalar yotoqxonolari, bolalar oromgohlarida yoki ta‘lim tashkilotlariga tutash hududlarda kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni o‘tkazganlik uchun jinoiy javobgarlik choralari ikki baravargacha og‘irlashtirish;

voyaga etmagan shaxslarni kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni aynan ta‘lim tashkilotlari, talabalar yotoqxonolari, bolalar oromgohlarida yoki ularga tutash hududlarda iste‘mol qilishga jalb qilganlik uchun o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini nazarda tutuvchi jinoiy javobgarlikni kiritish;

ayrim narkojinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilmaslik tartibini joriy etish kabilar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi afv etish masalalari bo‘yicha komissiya mahkumlarning afv etishga oid murojaatlarini o‘rganishda aholi genofondiga qarshi sodir etilgan har qanday jinoyat davlat, jamiyat va shaxs uchun jiddiy xavf ekaniga hamda o‘ta og‘ir oqibatlarga olib kelishiga alohida e‘tibor qaratish vazifasi yuklatildi.

Xulosa

Mazkur “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-son Farmonida nazarda tutilgan ustuvor yo‘nalishlar, vazifalar hamda chora-tadbirlar belgilangan mas‘ul ichrochilar

Foydalanilgan Adabiyotlar

- [1] President of the Republic of Uzbekistan, “Official statement/list,” [Online]. Available: <https://president.uz/oz/lists/view/8617>
- [2] *Yuz.uz*, “Dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yoʻliqqan,” [Online]. Available: <https://yuz.uz/news/dunyoda-500-milliondan-ortiq-odam-giyohvandlik-dardigayoliqqan>
- [3] Oʻzbekiston Respublikasi, “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar toʻgʻrisida”gi Qonun, No. 813-I, Aug. 19, 1999. [Online]. Available: <https://lex.uz>
- [4] Oʻzbekiston Respublikasi, *Jinoyat kodeksi*, 2026. [Online]. Available: <https://lex.uz>
- [5] Oʻzbekiston Respublikasi, *Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks*, 2026. [Online]. Available: <https://lex.uz>
- [6] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, “Farmon,” PF-207, Nov. 3, 2025. [Online]. Available: <https://lex.uz>
- [7] United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), *World Drug Report 2024*. Vienna: UNODC, 2024.
- [8] World Health Organization (WHO), *Global Status Report on Alcohol and Health and Treatment of Substance Use Disorders*, 2023.
- [9] European Monitoring Centre for Drugs and Drug Addiction (EMCDDA), *European Drug Report 2024*. Luxembourg, 2024.
- [10] World Bank, *Drug Use and Economic Development Report*, Washington, DC, 2022.
- [11] A. Stevens, “Drugs, Crime and Public Health: The Political Economy of Drug Policy,” *International Journal of Drug Policy*, vol. 25, no. 3, pp. 437–445, 2014.
- [12] D. Nutt, L. King, and L. Phillips, “Drug harms in the UK: A multicriteria decision analysis,” *The Lancet*, vol. 376, no. 9752, pp. 1558–1565, 2010.
- [13] National Institute on Drug Abuse (NIDA), *Drugs, Brain, and Behavior: The Science of Addiction*, 2020.
- [14] OECD, *Addressing Problematic Drug Use in OECD Countries*, Paris: OECD Publishing, 2019.
- [15] International Narcotics Control Board (INCB), *Annual Report 2024*. Vienna: United Nations, 2024.